



## IQTSIDYOITNING STRATEGIK TARMOQ KORXONALARNING MODENIZATSIYASINI TA'MINLASHNING MAZMUN-MOHİYATI VA AHAMIYATI

**Mamayusupov Ollamurod Namozovich**

**Аннотация.** *Ushbu maqolada investitsiya muhitining mohiyati, uni investitsiyalarni jalb qilishdagi ahamiyati, unga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Mamlakatda investitsiya muhiti yaxshilash bo'yicha amaliy taklif va tafsiyalar islab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *investitsiya, investitsion muhit, investitsiya jozibadorligi.*


Abstract. This article describes the essence of the investment environment, its importance in attracting investments, and the factors affecting it. Practical proposals and explanations for improving the investment environment in the country have been developed.

Key words: investment, investment environment, investment attractiveness.

Iqtisodiyotning strategik tarmoq korxonalarini hukumat tomonidan to'liq yoki qisman egalik qilinadigan xo'jalik yurituvchi subyektidir. Ushbu yuridik shaxslar hukumat nomidan tijorat ishlari bilan shug'ullanib iqtisodiy o'sishni ta'minlab, jamoatchilik manfaatlarini himoya qiladi.

Iqtisodiyotning strategik tarmoq korxonalarini mol-mulkning asosiy qismi davlatga qarashli bo'lgan hamda hukumat tomonidan nazorat qilinadigan, asosiy daromadi tovar va xizmatlarni sotishdan oladigan xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi. Iqtisodiyotning strategik tarmoq korxonalarining asosiy maqsadi yuqori darajada daromad olish emas (Pratuckchai va Patanapongse, 2012). Iqtisodiyotning strategik tarmoq korxonalarining asosiy maqsadi - ijtimoiy farovonlikni yuqori darajada tashkil qilishdir (Whincop, 2005).

Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy barqarorligi deganda uning zaxiralari va xarajatlarini shakllantirish manbalari bilan ta'minlash tushunilishi kerak. Moliyaviy barqarorlikning eng yuqori ko'rinishi korxonaning birinchi navbatda o'z mablag'lari manbalari hisobidan rivojlanish qobiliyatidir.



### 1.2.1-Rasm. Korxonalarning moliyaviy barqarorligini baholash ko'rsatkichlari va moliyaviy holatlari

Korxonaning moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlari hamda uning moliyaviy

Bunda, korxonalarning moliyaviy holati tahlil qilish orqali yuqorida ta'kidlangan barqaror, inqiroz oldi va inqirozli holatda ekanligini ta'kidlash mumkin. Bundan kelib chiqadiki, moliyaviy barqarorlik korxonaning moliyaviy holatidan kelib chiqqan holda baholanadi.

Korxonalarning moliyaviy samaradorligini baholashga imkon beruvchi ko'rsatkichlar sifatida quyidagilar ham belgilanadi:

- daromad;
- sof (taqsimlanmagan) foyda;
- sof aktivlar va davlat budjetiga o'tkaziladigan foydaning bir qismi, shuningdek davlat funksiyalari va vazifalarini bajarish ko'rsatkichlari;
- debitor va kreditor qarzdorliklari hisobi;
- tegishli rentabellik ko'rsatkichlari.


Ushbu ko'rsatkichlarni hisoblashda moliyaviy hisobotlaridan: buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, debitor va kreditorlik to'g'risidagi hisobot, muddat o'tgan budjet va davlat maqsadli jamg'armalari oldida kreditorlik qarzdorligi to'g'risidagi hisobotlardan foydalaniladi.

Ushbu hisobotlar tahlili bo'yicha aniqlangan ko'rsatkichlar qiymatlari ularning moliyaviy holatini baholab beradi, ya'ni korxonalarning moliyaviy barqarorligi va bankrotlik holatlarini aniqlashga imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Moliyaviy barqarorlik bu uzoq muddatli to'lov qobiliyati, likvidlik, joriy majburiyatlarni to'lash uchun zahiralar va naqt pul mablag'larning mavjudligidir. Shu bilan birga, korxonada o'zining moliyaviy faoliyatini uzliksizligini ta'minlash, bundagi barcha risklarni boshqarish hamda belgilangan ijobiy ko'rsatkichlarga erishishini tavsiflaydi.



Moliyaviy ta'minot moliyaviy xavfsizlikning tarkibiy qismi bo'lib, moliyaviy xavfsizlik moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi amalga oshirish chora-tadbirlardir.




### 1.2.1-Rasm. Korxonaning moliyaviy barqarorligini tavsiflofchi sxema

Manba: Роман. П.С. “Факторы финансовой устойчивости и безопасности предприятия”. Волгоград, 2007.

Mingaliev va boshqalar (2016) korxonaning moliyaviy xavfsizligini korxonaning moliyaviy holatining miqdoriy va sifat jihatidan aniqlangan darajasi nuqtai nazaridan o'rganadi, bu uning ustuvor moliyaviy manfaatlarini tashqi va ichki tabiatning aniqlangan real hamda potensial tahdidlaridan barqaror himoya qilishni ta'minlaydi.

Moliyaviy xavfsizlik parametrlari uning moliyaviy falsafasi asosida belgilanadi va uning joriy hamda kelajakdagi barqaror o'sishini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.



### 1.2.2-Rasm. Iqtisodiyotning strategik tarmoq korxonalarining moliyaviy barqarorligini xarakteristikasi

Manba: Tadqiqot natijalari bo'yicha muallif ishlanmasi.

Moliyaviy xavfsizlik- korxonona o'z strategiyasini amalga oshirish uchun bo'lishi kerak bo'lgan moliyaviy barqarorlikning cheklangan holatini belgilaydi, korxonaning tashqi va ichki tahdidlariga qarshi turish qobiliyati bilan tavsiflanadi.

Moliyaviy moslashuvchanlik- korxonaning tashqi va ichki o'zgaruvchan sharoitlarga muvofiq moliyalashtirish hamji va investitsiya qilish yo'nalishlarini o'zgartirish qobiliyatini tavsiflaydi. Bunda, korxonaning moliyaviy boshqaruv faoliyatining diversifikatsiyalanishini tushunish mumkin.

Korxonalarining moliyaviy barqarorligi aktivlar va kapital strukturasi orqali aniqlanadigan ko'rsatkich hamda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichi korxonaning moliyaviy xavfsizligining muhim tarkibiy qismi va zaruriy shartidir. Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlanish darajasini "moliyaviy barqarorlik - to'lov qobiliyati - xavf(risk)" ko'rsatkichlari orqali baholanadi (Abryutina, 2002).

Ushbu korxonalarining moliyaviy barqarorligi ularni soliqlar va dividendlarni o'z vaqtida to'lashi, majburiyatlarni doimiy bajarishi va kredit to'lovlari uchun kafolatdir, manfaatdor tomonlar uchun ular istagan nafililiklarning o'z vaqtida ta'minlanishini hamda faoliyatini kengaytirishda investorlarni jalb qilishda muhim ahamiyatga egadir.





### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

8. Bringham E.F., Ehrhardt M.C. Financial management theory and practice. Thomson South-Western, 2008. 1107 p.
9. Hillier D., Grinblatt M., Titman Sh. Financial Markets and Corporate Strategy. London: McGraw-Hill Higher Education, 2012. 877 p.
10. Korso E. Inclusive growth analysis and HRV: A methodological note. 2011. Elektron manba: <http://siteresources.worldbank.org>
11. Landesmann, Michael Alroy (2000): Structural Change in the Transition Economies, 1989 to 1999. The Vienna Institute for International Economic Studies.
12. Modigliani F., Miller M. The Cost of Capital, Corporate Finance, and the Theory of Investment // American Economic Review, v. 48. (1958).
13. Modigliani F., Miller M. (1963) "Corporate Income Taxes and the Cost of Capital: A Correction" American Economic Review, Vol. 53, No. 3, pp. 147 – 175.
14. Peter Brusov, Tatiana Filatova, Natali Orehova, Nastia Brusova. Weighted average cost of capital in the theory of Modigliani-Miller, modified for a finite lifetime company // Applied Financial Economics, v. 21, № 4.